



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL
ETISH-DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna

Qo'qon Universiteti Ta'lism kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Anatatsiya: Bu anatatsiya davomida, boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishning sabablari, muhimligi va boshqarishda qo'llaniladigan pedagogik usullar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'z: ko'nikma, tadqiqotchilik, kommunikativ, tanqidiy, kreativ, idrok.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda, o'quvchilarning fikr va istaklarini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi.

2023/2024 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lism muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lism dasturlari amaliyotga kiritilsin. Bunda: umumiy o'rta ta'lism muassasalarining 1 — 4-sinflarida o'quvchilarni ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo'yicha o'qitish;¹

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta'lism sohasidagi islohotlar zamirida Vatanimizni yanada taraqqiy ettirish, yoshlarni har jihatdan barkamol shaxs etib voyaga yetkazish, sohalar uchun yuqori bilimga ega mutaxassislarni tayyorlashdek maqsadlar mujassamdir.

O'qituvchi o'z tajribasida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, hatti-harakati darsda o'quvchilarning diqqat-e'tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo'lishiga, ularning chambarchasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak. O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarni ham shunga o'rgatish kerak.

Ta'limgni, jumladan, boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etishni hech kim inkor qilmaydi. Aksincha, ta'limgni ijodiy tashkil etish yo'li bilan uning samaradorligini oshirish,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.2023 yildagi PF-27-son. <https://lex.uz/docs/-6396146>



yoshlarni hayot, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning sifatini yaxshilash mumkinligini o'qituvchilar ham, ilmiy jamoatchilik ham e'tirof etadi. Ammo shunga qaramasdan, fan mutaxassislari, shuningdek, maktab o'qituvchilari orasida ijodiy ta'limga noijodiy ta'limga farq qilish sohasida tushunmovchiliklar, ularning uzaro tafovutlarini ajratishda kamchilik, yetishmovchiliklar ko'plab topiladi. Shundan bo'lsa kerak, o'quvchilarga beriladigan mustaqil ishlarning barchasi ijodiy ish sifatida qabul qilinadi. Haqiqatan ham sinfda tashkil etiladigan o'quv topshiriqlarining barchasini mustaqil ish, mustaqil ishlarning esa barcha ko'rinishi va turlarini ijodiy ish deb qarash mantiqan chalkashlikka olib keladi.² Ijodkorlikni oshirishda idrokning ahamiyati kattadir.

IDROK — tirik organizmning ma'lumotlarni qabul qilib, qayta ishlash jarayoni; organizmga obyektiv reallikni aks ettirish va tashqi olamdagagi yangidan-yangi vaziyatlarni baholab, shunga yarasha harakat qilish imkonini beradi.

Idrok ongning, miyaning ijodiy jarayonidir. Idrokning fiziologik asosi bosh miya yarim sharlari po'stlog'ining analiz va sintez faoliyatidan iborat. Bu faoliyat sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarning bitta xil-xsusiyati bilan emas, balki jami xususiyatlarining ta'siri bilan bog'liq. Idrok ana shu barcha xususiyatlar o'rtasidagi muvaqqat bog'lanish (q. Assotsiatsiya) natijasida yuzaga keladi. Inson miyasining umumlashtiruvchi faoliyatiga asoslangan Idrok jarayoniga kishining tajribasi, bilim, abstrakt tafakkurning faoliyati va ham ishtirok etadi.³

Inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun zarur sharoit bo'lib, uning jarayonida shaxs hayotiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o'zlashtiradi, malaka va ko'nikma hosil qiladi. Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to'g'risida va insonning hayotda tutgan o'rni to'g'risidagi tasavvurlari o'zgarmoqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o'zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o'tish yuz bermoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchisining faoliyatida ijodkorlik uning

² ХАМРОЕВ АЛИЖОН РУЗИКУЛОВИЧ БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ, Тошкент - 2005

³ <https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/idrok/>



samarali ta'lism faoliyatini belgilab beruvchi ilmiy tasavvurlari evristik ta'limning pedagogik asosi sanaladi. O'quvchidagi bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz beradi. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yorlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa o'quvchida atrof-olam ob'ektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish; ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi. O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jaraenida uning aqliy- intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo'lib hisoblanadi.

Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Ijodkorlik - faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan tortib, to namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo'yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi.⁴

Ta'lim-tarbiyada bolalarning har tomonlama kamolga yetkazish asosiy maqsad qilib qo'yilgani ham tarbiyaning ana shu qonuniyatlariga asoslanadi. Har tomonlama ta'lim-tarbiya berish bolalardagi yashirin iste'doddarni yuzaga chiqarishga yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarni kichik muktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat berilishi maqsadga muvofiq. Har bir bolaning qobiliyatini namoyon etuvchi faoliyatga yo'llashning eng maqbul yo'li ularda ijodkorlikni rivojlantirishdir. O'quvchi ijtimoiy ahamiyatga mahsulot yarata olmaydi va bu muktabning vazifasiga kirmaydi ham. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zlashtirgan bilimlari, mahoratini o'z saviyasi darajasida qo'llaydilar. Aqliy faollik, o'tkir zehn, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon etadi. Topshiriqni bajarishda o'quvchilarning ijodiy faoliyati u yaratayotgan o'quv jarayonida masalalar yechish, muammolarni hal etishda, insholar yozishda

⁴ БОЛТАЕВА ШАХЛО ТОШПУЛАТОВНА БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ЎҚУВЧИЛАР ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШ МНОГОГРАФИЯ, НАВОЙЙ- 2012 ЙИЛ, 6.б



rivojlana boradi. O'quvchi bu borada maktabgacha ta'lilda va undan keyin shu vaqtgacha olgan bilimlarini tadbiq etadi. Bunda o'quvchi yangi usullarni qo'llaydi. Topshiriqni bajarish uchun faollik ko'rsatish, zehnliligi, zukkoligi, kashfiyotchiligi, zarur bilimga ega bo'lish uchun harakat qilishi, muammolarni yechishda harakatchanligi, mustaqilligi, mehnatsevarligi, voqealari- hodisalar ichida eng muhimini tanlay bilishi, umumiysi ko'ra bilish qobiliyati kabilarni rivojlantirishga imkon beradigan faoliyat ijodiy faoliyat samarali faoliyatdir. O'quvchi mustaqil holda bajargan ijodiy ishlar: she'r, insho, hikoya, model, maket, o'yinchoqlar, badiiy mehnat mahsulotlari ijodiy faoliyatni rivojlantiruvchi samarali natijalardir. Ayniqsa ijod, san'at, mehnat, namunalarini yaratishda umumiy ma'lumot bilan birga, ularni yaratish texnologiyasini bilish kasb-hunarga oid bilim ham kerak bo'ladi. Bu borada bolalarning qiziqishlari, qobiliyati, mayllarini hisobga olgan holda mehnat turlarini o'quv jarayoniga kiritish, ijod turlarining rang - barangligi va xilma-xil bo'lishiga sharoit yaratish talab etiladi.⁵

O'quvchilar bilish faoliyatini boshqaruvchi qo'rilmalar pedagog yoki metodist (uslubchi) tomonidan oldindan tuzilgan dastur asosida ishlaydi. Shuning uchun ham ular faqat oldindan dasturlangan holatlarnigina nazorat qiladi, xolos. O'quv jarayonida vujudga kelgan, lekin oldindan dasturlanmagan vaziyatlarni boshqarish uchun pedagog faoliyati zarur bo'ladi. O'quvchilar bilish faoliyatini boshqarishda o'qituvchi, mashina yordamida (avtomatik) va ularning birgaligida hamda o'z-o'zini boshqarish turlaridan unumli foydalanishni loyihalash zarur.

O'quvchilar bilish faoliyatining har bir qismi bo'yicha o'quv jarayonini boshqarishni sikel (siklik) bo'yicha tashkil qilish. Bunda, o'quvchilarga to'g'ridan-to'g'ri axborot uzatish bilan birga, ulardan ham axborot olish, ya'ni qaytuvchan aloqa e'tiborga olinadi. Shunday ekan albatta berilgan ma'lumotlarni o'quvchilardan turli hil usullar orqali so'rash, ularning yangi mavzularni naqadar yaxshi o'zlashtirishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, ta'lilda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash

⁵ БОЛТАЕВА ШАХЛО ТОШПУЛАТОВНА БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ЎҶУВЧИЛАР ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МОНОГРАФИЯ, НАВОЙЙ- 2012 ЙИЛ, 23.b



orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zлari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zлari keltirib chiqarishga o'rgatadi.⁶

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.2023 yildagi PF-27-sod. <https://lex.uz/docs/-6396146>
2. ХАМРОЕВ АЛИЖОН РУЗИКУЛОВИЧ БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ, Тошкент – 2005
3. БОЛТАЕВА ШАХЛО ТОШПЎЛАТОВНА БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ЎҚУВЧИЛАР ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МОНОГРАФИЯ, НАВОИЙ- 2012 ЙИЛ,6.b
4. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
5. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
6. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O'RGATISHDA XORIJUY TAJRIBALAR DAN FOYDALANISH METODIKASI (O'QISH VA ONA TILI O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA". Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.

⁶ Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O'RGATISHDA XORIJUY TAJRIBALAR DAN FOYDALANISH METODIKASI (O'QISH VA ONA TILI O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA". Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.



7. Ashuraliyev Rahmonjon, & Sanobarxon Asilova. (2023). BILISH JARAYONLARI PATOLOGIYASI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 770-772. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.710>
8. Jumanova, S. I., & Asqarova, D. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI O'STIRISHDA STEM TA'LIMINING O'RNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 377-381.
9. Jumanova, S. (2022). USMON AZIM SHE'RIYATIDA KUZ MOTIVI. Scientific journal of the Fergana State University, (2), 29-29.
10. Maxliyoxon, O., & Nilufar, Y. L. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIM SINFLARIDA YOD O'QISH VA BADIY O'QISHNING MUHIMLIGI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 46-51.
11. Maxliyoxon, O., & Sarvinoz, M. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINI OMAVIY TADBIRLARGA TAYYORLASH USULLARI. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 41-44.
12. Axadjon o'g'li, A. A., & Murotovich, M. F. (2023). RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI IQTISODIYOT SIYOSATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 294-298.
13. UI Abdullaev Akhrorjon, Akhmadjonov O. (2023). Islom moliyasida shartnoma turlari. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI